



BOLALAR HAYOTIDA O'YINLARNING AHAMIYATI

Gapparova Zilola Neymat qizi

Jizzax viloyati pedagogik mahorat markazi "Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lif metodikalari" kafedrasiga o'qituvchisi.

Xo'jamqulova Bibisora Davlatovna

Jizzax viloyati 7-sonli Davlat maktabgacha ta'lif tashkiloti tarbiyachisi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha yosh davri bolalarning qiziqarli faoliyat turlaridan biri o'yin bo'lganligi sababli markazdagi faoliyatni o'yin bilan bog'lab olib borish kerakligi ko'rsatilgan. Ijtimoiylashuvning bola uchun muvaffaqiyatlari bo'lishi ularning o'zlarini tashkil qiladigan turli o'yinlar bilan bog'liq hisoblanadi. Bu davrda bolalar nutqining rivojlanishi ularning faoliyati, muloqoti bilan uzviy bog'liq.

Abstract: This article discusses the need to conduct our activities in the center with games, since one of the most interesting activities of preschool children is play. The success of socialization for a child is also associated with the various games they organize. The development of children's speech during this period is inextricably linked to their active communication.

Kalit so'zlar: Harakatli o'yinlar, syujetli-rolli oyinlar, qurilish va konstruktiv o'yinlar, stol o'yinlari va intellektual o'yinlar, qoidali o'yinlar.

Keywords: Action games, role-playing games with a plot, construction and constructive games, puzzle games and intellectual games, rule-based games.

O'yin - bu bolalikning ajralmas qismi bo'lib, bolalar hayotining tabiiy va eng muhim faoliyatlaridan biridir. O'yin orqali bola dunyoni o'rjanadi. O'z his-tuyg'ularini ifoda qiladi va ijtimoiy tafakkurni rivojlaniradi. Psixologiya va pedagogika bolalarning jismoniy, aqliy va ijtimoiy rivojlanishida o'yinlarning o'rni beqiyos ekanligini ta'kidladi. Ayniqsa, kichik yoshdagi bolalar uchun o'yin bu faqat vaqt o'tkazish vositasi emas, balki ular rivojlanishining eng samarali usuli hisoblanadi. Bolalarning salomatligi, jismoniy rivojlanishi va harakat madaniyatiga zamin yaratadi. Bolalar o'yinlari turli shakl va mazmunga ega bo'lib, har biri muayyan rivojlanishiga xizmat qiladi. O'yinlarning turlari juda kop. Misol uchun:

-**Harakatli o'yinlar**

-**Syujetli - rolli oyinlar**

-**Qurilish va konstruktiv o'yinlar**

-**Stol o'yinlari va intellektual o'yinlar**

-**Qoidali o'yinlar**

Harakatli o'yinlar bolalarning harakat faoliyatini rivojlanirish, jismoniy tayyorgarligini oshirish, ijtimoiy ko'nikmalarini shakllantirish, chaqqonlik, chidamlilik, va harakatlar koordinotsiyasini oshiradi. Harakatli o'yinlardan biri

"Sehrgar to'p" bo'lib, bu o'yinda maqsad e'tibor va jamoaviy o'ynashni rivojlanishdir. Joy: Ochiq maydon yoki sport zali.

Bolalar maydonda erkin yugurishadi. Lekin to'p kimga tegsa, u bir necha soniyaga "haykal" ga aylanib, qimirlamasdan turishi kerak. O'yin yetakchisi to'pni havoga tashlaydi. To'p kimga tegsa, u qimirlamasdan turishi kerak. Boshqa o'yinchilar unga tegib, ularni yana harakatga keltirishi mumkin. Kim eng uzoq vaqt "haykal" bo'lib qolmasa, o'sha g'olib bo'ladi. Bu o'yinlar bolalar uchun juda qiziqarli va jismoniy faoliykn oshiradi. Qolaversa, syujetli-rolli va



sahnalashtirish oyinlari bolalar hayotida juda katta rol o‘ynaydi. Syujetli rolli va sahnalashtirish oyinlari bolalar tomonidan turli hayotiy vaziyatlarni aks ettirish orqali amalga oshiriladi. Bolalar hayotida voqealar (kasb-hunarlar, oilaviy hayot, sayohatlar, kasalxona, do‘kon h. k) o‘yin senariysi orqali yaratiladi, har bir bola ma’lum bir rolni bajarish orqali tasavvur va ijodkorlikni rivojlantiradi. Lug‘at boyligini oshiradi. O‘z fikrini erkin bayon qilishga yordam beradi.

Jamoada ishslash, hamkorlik qilish ko‘nikmasini oshiradi. O‘z his-tuyg‘ularini boshqarish va boshqalar hayotini tushunishiga o‘rgatadi. Yaxshilik va yomonlik, halollik, mehribonlik kabi tushunchalarni shakllantiradi. Syujetli-rolli va sahnalashtirish oyinlari bolalarning har tomonlama barkamol rivojlanishiga xizmat qiladi. Bunday o‘yinlardan biri "**Qizil shapkacha**".

Maqsad: Eslab qolish qobiliyatini oshirish, tezkor harakat qilish.

Joy: Bog‘ yoki katta xona,

Kerakli materiallar: Qizil shapkacha, savatcha, "Bo‘ri" niqobi,

Bolalar Qizil shapkacha va uning do‘sstariga aylanishadi. Ular buvisi uchun savatchada yegulik olib borishadi. Lekin yo‘lda yovuz bo‘ri bor va u bolalarni to‘xtatishga harakat qiladi. Bolalar yashirin yo‘llarni topish, Bo‘ri “uxlayotgan” joydan sekin o‘tish, savatchadagi yeguliklarni tushirmasdan topshiriqlarni bajarishlari lozim. Agar ular barchasini a‘loga bajarishsa, buvisi xursand bo‘ladi va bolalar mukofotlanadi.

Qurilish va konstruktiv o‘yinlar

Bu atrof-muhitni tushunish, o‘z qo‘li bilan nimanidir yaratishga asoslangan oyin turidir. Ushbu o‘yinlar orqali bolalar turli materiallar yordamida bino, ko‘prik, transport vositalari, mebel yoki boshqa inshootlarni quradilar. U bolalar tasavvur va ijodkorligini oshiradi. Bola yangi narsalarni o‘ylab topishi va o‘z g‘oyalarini amalda sinab ko‘rish imkoniyatiga ega boladi. Bolalarda mantiqiy fikrlash va muammolarni hal qilish qobiliyati rivojlanadi. Bolalarning qo‘l mayda motorikasi rivojlanishi, ko‘z orqali mo‘ljalning shakllanishi, jamoada bir-biri bilan kelishib, rejalar tuzish, sabr bilan harakat qilishga o‘rganishlari aniqlangan.

O‘yin jarayonida bola o‘zining ijodiy fikrlari bilan yangi narsalarni yaratishga harakat qiladi. Qanday qilib mustahkam, barqaror inshootlar qurish mumkinligini o‘laydi. Muhandislik asoslarini tushunishga harakat qiladi. Qurilish va kanstruktiv o‘yinlar bolalarning har tamonlama rivojlanishiga tafakkur, mantiqiy fikrlash, ijodkorlik va ijtimoiy ko‘nikmalarini shakillantirishga xizmat qiladi. Bunday o‘yinlardan yana biri "**Sehrli qal‘a**" o‘yinidir.

Maqsad: jamoaviy ishslash va qurish qobiliyatini rivojlantirish.

Kerakli jihozlar: Karton qutilar, plastik kubiklar, yog‘och taxtachalar, Lego yoki boshqa qurilish detallari. Bu oyin xonada yoki ochiq maydonda oynaladi. Bolalar kichik jamoalarga bo‘linadi. Har bir jamoa o‘zining "Sehrli qal‘a" sini qurishi kerak. Qurilish jarayonida bolalar toshqin yoki kuchli shamol kabi sharoitlarga tayyor bo‘lish uchun mustahkam tuzilma yaratishlari zarur.

Oxirida har bir jamoa o‘z qalasini taqdim etadi va mustahkamlik tekshiriladi.

(Masalan , yengil shamol yoki tebratish bilan eng mustahkam qurilgan qal‘a g‘olib bo‘ladi. Bunday o‘yinlar bolalarga zavq beradi.

Bolani rivojlantiruvchi o‘yinlardan yana biri **Stol oyini bo‘lib**, u bolalar va kattalar tomonidan stol ustida maxsus qoidalar asosida o‘ynaladigan intellektual va mantiqiy oyinlardir. Ular turli xil bo‘lishi mumkin.

Shaxmat, shashka, domino, ertak va sarguzasht oyinlar, matematik misollar, so‘z toppish, xotira va diqqatni jamlash to‘g‘ri qaror qabul qilishga o‘rgatadi. Bolalarda qoidali o‘yinlarning ahamiyati maktabga tayyorgarlik yoki ilk sinflarda o‘qish davrida yuqori bo‘ladi. Bu yoshda bolalar tafakkuri, ijtimoiy ko‘nikmalarini va motorikasi rivojlanishda davom etadi. Qoidali o‘yinlar bolalarning aqli-yhissiy va ijtimoiy rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatadi. 6-7 yoshdagisi bolalar uchun mos qoidali o‘yinlar quyidagi toifalarga bilinadi:

-Stol o‘yinlari,

-Harakatli o'yinlar,

-Matematika va mantiqiy oyinlar,

-Tasavvur va ijodkorlikni rivojlantiruvchi o'yinlar. Bu o'rinda diqqatni jamlash va strategik fikrlashni rivojlantirish oddiy qoidalar asosida o'ynalib, bolalarni intizom, tartibini shakllantirish qoidalariga rioya qilishga o'rgatadi. Bunda fikrlash jarayonini tezlashtiradi. Bunday o'yinlardan biri "Qizil, sariq, yashil" deb nomlanadi. Bu o'yin ochiq maydonda yoki xonada o'ynaladi.

O'yin qoidalari; O'yin yetakchisi uchta rangni aytadi.

"Yashil" - Bolalar yugurishadi,

"Sariq" - Bolalar yurishga o'tadi

"Qizil" – to'xtaydi. Kim noto'g'ri harakat qilsa, o'yindan chiqadi. Eng ohrida qolgan bola g'olib bo'ladi.

Xulosa

O'yin 6-7 yoshli bolalar uchun faqatgina harakat emas, balki ta'lim va rivojlanish vositasi hisoblanadi. Bu o'rinalar bolalarni mantiqiy fikrlash, ijtimoiy muloqot, sabrlilik va tasavvur qilish kabi muhim qobiliyatlarini o'rgatadi. Shu bois ota onalar, tarbiyachilar bolalarni foydali o'yinlarga jalb qilishlari muhim. Maktabgacha yoshdag'i bolalarning o'yin texnologiyasi vositasida kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirish masalalariga doir materiallaridan foydalananishga oid adabiyotlarni o'rganib chiqish va tahlil qilish, maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilari uchun didaktik materiallar tayyorlash usullari va o'yinlar bilan mashhg 'ulotlar o'tkazilsa, bolalarga qiziqarli va samarali bo'ladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. **Abduqodirov A.** (2010). *Bolalar o'yini va uning rivojlanishdagi o'rni*. Toshkent: O'qituvchi.
2. **Maqsudova D.** (2015). *Bolalar pedagogikasi*. Toshkent: Yangi asr avlod.
3. **Turg'unov S.** (2012). *Psixologik o'yinlar: Bolalar rivoji va o'yinlarning roli*. Toshkent: Ma'naviyat.
4. **Boshariqov M.** (2014). *O'yin psixologiyasi va uning tarbiyadagi roli*. Tashkent: Akademnashr.
5. **Vygotskiy L. S.** (1990). *O'yin va uning rivojlanishdagi o'rni*. Moskva: Pedagogika.
6. **Piaget J.** (2001). *Bolalar o'yinlari va intellektual rivojlanish*. Tashkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi.
7. **Miller E. & Almon J.** (2009). *The Importance of Play in Early Childhood Development*. Oxford University Press.
8. **Gulzarova T.** (2016). *Bolalar o'yini va uning ta'limdagi o'rni*. Tashkent: Xalq ta'limi.
9. **Hughes C.** (2002). *The Role of Play in Development*. London: Routledge.